

SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARINING OILADAGI NIZOLARNI KELIB CHIQISHI HAQIDAGI FIKR VA MULOHAZALARI

Xudoynazarova Dilrabo Buron qizi

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi I bosqich magistri

Ilmiy rahbari:

Samiyev Asroriddin Sayfiddinovich

p.f.f.d (PhD), dotsent

Annotatsiya: Oilaviy nizolar inson munosabatlarining hamma joyda mavjud bo'lib, ularning paydo bo'lishi keng qamrovli ijtimoiy va psixologik oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ushbu ilmiy maqola sharq va ga'rb mutafakkirlarining oilaviy nizolari haqidagi qarashlari, ularning paydo bo'lishiga yordam beradigan omillarni har tomonlama ko'rib chiqadi va ularning keyingi ijtimoiy psixologik oqibatlarini ta'kidlaydi. Maqolada oilaviy nizolar asosidagi murakkab dinamikaga oydinlik kiritish uchun asosiy nazariyalar va empirik dalillar o'rganilib, ularning paydo bo'lishiga olib keladigan mexanizmlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: sharq va ga'rb mutafakkirlarining fikrlari, oila, muammoli vaziyatlar, ziddiyat, hissiy tanglik, ijtimoiy oqibatlar, aralashuv, oldini olish, ota-ona, qiyinchilik, mojaro.

Abstract: Family conflicts are ubiquitous in human relationships, and their occurrence can have far-reaching social and psychological consequences. This scientific article comprehensively examines the views of Eastern and Western thinkers about family conflicts, the factors that contribute to their emergence, and emphasizes their subsequent social and psychological consequences. The article explores key theories and empirical evidence to shed light on the complex dynamics underlying family conflict and to better understand the mechanisms that lead to it.

Key words: thoughts of Eastern and Western thinkers, family, problem situations, communication, emotional stress, social consequences, intervention, prevention, parents, difficulty, conflict.

Аннотация: Семейные конфликты повсеместно распространены в человеческих отношениях, и их возникновение может иметь далеко идущие социальные и психологические последствия. В данной научной статье всесторонне рассматриваются взгляды восточных и западных мыслителей на семейные конфликты, факторы, способствующие их возникновению, и подчеркиваются их последующие социальные и психологические последствия. В статье исследуются ключевые теории и эмпирические данные, чтобы пролить свет на сложную динамику, лежащую в основе семейного конфликта, и лучше понять механизмы, которые к нему приводят.

Ключевые слова: мысли восточных и западных мыслителей, семья, проблемные ситуации, общение, эмоциональный стресс, социальные последствия, вмешательство, профилактика, родители, трудности, конфликт.

KIRISH

Oilaviy ziddiyatlar deganda biz ma'lum bir oila a'zolari munosabatida sodir bo'luvchi har xil turdagi xabarlarini; ma'lumotlar, his-tuyg'ularni og'zaki nutq yoki og'zaki bo'lmagan vositalar yordamida amalga oshirish jarayonini tushunamiz. Oilaviy ziddiyatning samarali tus olishida uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan oila vakillari nutqida faol uchraydigan murojaatning o'zni beqiyosdir. Shuningdek, har bir oila ziddiyatida uning a'zolari uchungina taalluqli bo'lgan oilaviy murojaat namunalari, me'yorlari, o'zaro ishonch va tasavvurlarni ifoda etuvchi e'tiqod shakllangan bo'ladi. Ziddiyat jarayonida adresatga to'g'ri murojaat qila olish bu inson nutqining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Murojaatning har qanday turi uni faqatgina qabul qiluvchisiga yetkazishni tashkillashtirishdan iborat bo'libgina qolmay, balki odob-axloq me'yorlariga rioya etgan holda suhbat chog'ida adresat bilan og'zaki nutqni mazmunli va samarali tus olishiga zamin yaratishdan iboratdir.

Oila instituti tadqiqi allaqachon ko'plab sohalarda o'rganilgan bo'lsa-da, tilshunoslar so'nggi yillarda oilaviy munosabatlarni muayyan misollar, izchillik va qiziqish bilan tadqiq qila boshladilar. Hammaga ayonki, oila instituti shakllanishi uzoq tarixiy davrlarni o'z ichiga qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Har bir davr, har qaysi millatda ham oilaviy masalalar, unda istiqomat qiluvchi vakillar orasidagi munosabatlar o'sha jamiyatning turli sohalarda rivoj topishidagi tayanch poydevori bo'lgan. Bundan ma'lum bo'ladi, oila jamiyatning ajralmas bo'lagi, yurt taraqqiyotining asosidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oilaviy muloqot va oilaviy munosabatlarda murojaatning o'rniga e'tiborni qaratishdan avval oila so'zining lug'aviy ma'nosini ikki noqardosh madaniyat vakillari izohlari yordamida ko'rib chiqish o'rinlidir.

A. Madvaliev tahriri ostidagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "oila" atamasiga shunday ta'rif beriladi: "Oila- (arab. *عائلة* bola-chaqa, xonadon; urug'-avlod) 1. Erxotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon. Ahil oila. San'atkorlar oilasi. Oila boshlig'i. 2. Rafiq, xotin. Oilam maktabda o'qituvchi". [1]

K. Najmidinova jamiyatda oilaning ma'naviy-axloqiy holatini kuzattach, o'z monografiyasida shunday fikr yuritadi: "Oila – nikoh munosabatlarini, urug' ichi munosabatlari va urug'lararo munosabatlarni tartibga solish zaruriyati bilan yuzaga keladi. Oila jamiyatning tayanchi, uning birinchi va birlamchi yadrosi, zarrasidir. Ongli oila bo'lib yashash dunyodagi barcha maxluqot va jonzotlar orasida faqat inson zotiga xosdir". [2]

Britannika saytida keltirilishicha, oila – nikoh, qondoshlik yoki farzand asrab olish rishtalari yo'li bilan birlashtirilgan, bitta xonadonni tashkil etadigan va o'zlarining ijtimoiy sharoitlarida bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan shaxslar, odatda turmush o'rtoqlar, ot-onalar, bolalar va aka-ukalar guruhi. [3]

Ingliz olimlari Djeyn Makkarti va Rozalinda Edvardslar e'tirof etishicha, "oila" atamasining o'zi va uni qanday ishlatish mumkinligini nazariy jihatdan asoslashdan tashqari, oila tadqiqoti odatda o'zaro bog'liq mavzular to'plamini qamrab oladi, jumladan: 1) turmush qurish va farzandli bo'lish; 2) uy xo'jaliklari shakllanishi va demografik tendensiyalar; 3) bola tarbiyasi va g'amxo'rlikning boshqa turlari; 4) qarindoshlik va jamoat munosabatlari va shu kabilar. [4]

Professor I. Levin keltirgan ta'rif bo'yicha, kundalik tilda oila ijtimoiy guruh sifatida huquqiy, biologik va hissiy jihatdan bog'langan; oilaning kundalik tilga yaqin ta'riflaridan biri esa oila bir xonadonda yashovchi va qarindosh bo'lgan ikki yoki undan ortiq qon, nikoh yoki farzandlikka olish munosabatlari orqali bog'langan shaxslarni o'z ichiga oladi. [5]

Jonson tadqiqotlarida qayd etilishicha, oila diskursi oila a'zolari tomonidan birgalikda qurilgan bo'lib, ularning har biri o'zaro munosabatlarda aniq ishonch va maqsadlariga egadir. O'zaro oilaviy suhbatlar chog'ida oiladagi rollar a'zolar tomonidan belgilanadi, rad etiladi va bu borada bahslar ham olib boriladi. Belgilangan lavozimlar, odatda, oiladagi shaxslar jinsi va pozitsiyasiga asoslangan holda tayinlanadi. [6]

NATIJARLAR

Sharqda oila va oilaviy munosabatlar masalasiga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi allomalar bu masala yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Fitrat oila qurish uchun to'rt narsaga e'tibor berishni talab etadi: mol, nasab, husn va imonu-e'tiqod. Buni quyidagicha tushunish lozim:

1. Uylanish orzusida bo'lgan er bilan xotinning mol (boylik)lari va nasablari taxminan bir xil bo'lishi lozim. Aks holda ular hayoti azobda o'tadi.

2. Husn garchand tashqi fazilat bo'lsa ham, kishi qalbini o'ziga moyil qilish xususiyatiga ega, agar ana shu qalbiy moyillik paydo bo'lmasa, er bilan xotin saodatli umr kechirmaydi.

3. Er va xotin dindor bo'lishi lozim. Dindorlik Allohni tanish, bilish va haqdan qo'rqishdir. Husni axloqning asosi va mezoni Allohdan qo'rqish va haqni bilishda, ya'ni dindorlikdadir. Har bir oila poydevorining mustahkam bo'lishi turli ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy va maishiy omillarga bog'liq. Shuning uchun ham muallif baxtli va ayniqsa, baxtsiz oilalar hayotiga nazar tashlab, kitobxonga ibrat bo'lishga arziydigan hayotiy misollarni keltirgan holda ularning oila inqirozidagi ishtirokini chuqur tahlil etib beradi. [7]

Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qo'llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Uning «Tadbiri manzil», "Uy xo'jaligi" kabi qator asarlarida oilaviy munosabat masalalariga e'tibor qaratilgan. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlagan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning «Tadbiri manzil» asarida alohida o'ziga xos tarzda bayon etilgan.

Alisher Navoiy "yaxshi xotin — oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo'lsa — ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa — jon ozig'i-dir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g'am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoni dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo'ladi. Turmushda boshingga har qanday jaf o tushsa, hamdarding u. Teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, ko'makdoshing u. Ko'nglingga g'am yuzlansa, u hamroh, badaningga xastalik va zaiflik kelsa, uning ham joni halak, ammo xudo ko'rsatmasin, nomuvofiq xotin uchrasa, o'z uyingda halokatli illat paydo bo'ladi. U beandisha, shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi

va yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo'lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo'lmasa, eriga yuzi qoralik keltiradi, agar mayxo'r bo'lsa, uy odobi yo'qoladi, axloqsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi. [8]

MUHOKAMA

Ikki madaniyat oilaviy muloqotida uchraydigan murojaat shakllarini kuzatish chog'ida ma'lum bo'ldiki, har ikki xalqda ham ota-onaga hurmat-e'tibor, izzat-ikrom tushunchalari ulug'lanadi, pozitiv strategiyalar yetakchilik qiladi, farqli jihati shu bo'ldiki, o'zbek xalqi shevalarga boy xalq va har bir hududning o'ziga yarasha kelib chiqish tarixi bo'lgani kabi oilaviy suhbatlaridagi murojaat terminlari ham turfa xilma-xilliklarga ega. Yana bir ahamiyatli xususiyati, hattoki ayrim chaqiriqlarga qardosh qo'shni millat vakillari nutqidagi ifodalar (modar) ham singib ketganligining guvohi bo'lish mumkin. So'rovnomada jarayonida e'tiborni qaratadigan jihati, noqardosh madaniyat ishtirokchilari oilaviy mavzudagi har qanday so'rovnomada ham ishtirok etishni istamasliklari ma'lum bo'ldi. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarga tayanib, oilaviy tadqiqot, darhaqiqat, intim janrga xos izlanishlardan biri bo'lib qolishi bu doiradagi barcha qiziqqan savollarga to'la yechim topa olish imkonini bir oz bo'lsa-da cheklaydi, deya olamiz. [9]

XULOSA

Oila bu er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasida shakllangan o'zaro munosabatlarning aniq tarixiy tizimi, psixologik nuqtai nazardan bu kichik bir jamoa bo'lib, uning a'zolari bir-biri bilan qarindosh urug'chilik va nikoh orqali bog'langan bo'ladilar. Oilaning bo'lishi jamiyatni, aholini jismonan va aqlan kamolotiga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Ba'zi lingvistlar esa oila diskursini tadqiq etish ayrim muammolarni, aniqrog'i, oilaviy munosabatlar, oilaviy muloqot o'zaro bir shaxsiy jarayonda sodir bo'lishi sabab unga oid zaruriy ma'lumotlarni jamlashda bir oz noqulayliklar tug'dirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Brayan Klensi e'tirof etishicha, oila diskursi intim janrda joylashgan bo'lib, u o'zida eng ko'p shaxsiy va xususiy diskursni, ya'niki er-xotin va bir-biriga juda yaqin bo'lgan do'stlar orasidagi diskursni ifoda etadi. Fikrlarni ko'rib chiqish davomida ma'lum bo'ldiki, "oila" tushunchasi milliy madaniy o'ziga xoslikka ega, sharq va g'arb madaniyati vakillari nuqtai nazariga ko'ra ham "oila" deyilganda, Qondoshlik va nikoh rishtalari orqali bog'langan, bir yoki bir necha farzandlarga ega bo'lgan o'zaro insonlar guruhi tushunilar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati.5-jild / M harfi/ A. Madvaliev. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 157 b. B.122.
2. Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. /– T.: «Adolat», 2016. 224 b. B.5
3. <https://www.britannica.com/topic/family-kinship>
4. Ribbens McCarthy, Jane and Edwards, Rosalind (2011). Key Concepts in Family Studies. London:Sage.
5. Levin, Irene (1999), "What Phenomenon is Family?", Marriage & Family Review, Vol: 28, No: 3, pp. 93 — 104.

6. Rebekah Johnson. Teachers College, Columbia University, Working Papers in TESOL & Applied Linguistics, 2007, Vol. 7, No. 2, The Co-Construction of Roles and Patterns of Interaction in Family Discourse.

7. <https://oliymahad.uz/36851>

8. OILA XUSUSIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI (tdpu.uz)

9. Dilafruz Sulaymonova “OILAVIY MULOQOTDAGI MUROJAATNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI” maqolasi.